

Qishki ta'til kunlarida talabalar uchun chegirmalar taqdim etilishi uzaytirilgani haqida

2022 9 Yanvar

Avvalroq "Uzbekistan Airways" AJ respublika ichida amalga oshiriluvchi yo'nalishlarda talabalar uchun chegirmalar amal qilish muddati 2022-yil 23-yanvarga qadar uzaytirilganini ma'lum qilgan edi.

2022-yil 8-yanvar holatiga ko'ra, aviakompaniya 50% chegirmani hisobga olgan holda talabalarga 2 600 dan ortiq aviachiptalar sotuvini amalga oshirdi. 7-8 yanvar kunlari aviakompaniya faqatgina Uzbekistan Airways Sales filialida 427 ta imtiyozli chiptani qayta rasmiylashtirdi, hududlarda esa aviachiptalarni qayta rasmiylashtirish aviakompaniya agentlari va aeroport kassalarida amalga oshirilmoqdf. Eslatib o'tamiz, 10.01.2022ga qadar chegirma asosida xarid qilingan aviachiptalar 23-yanvargacha mavjud reyslarga bepul qayta bron qilib beriladi.

Shuningdek, talabalarning respublika ichida harakatlanishiga bo'lgan talabi yuqoriligini hisobga olgan holda, Uzbekistan Airways 2022-yil 20-23-yanvar kunlari Urganch, Nukus, Buxoro, Farg'ona, Qarshi, Termiz va Andijondan Toshkentga qo'shimcha qatnovlarni yo'lga qo'yadi.

Aviachiptalarni qayta rasmiylashtirish haqida savollaringiz yoki shikoyatingiz bo'lsa, siz aviakompaniyaning kunu-tun faoliyat yuritadigan aloqa markaziga qo'ng'iroq qilishingiz mumkin +998781402000.

Telegram: t.me/uzbekistanairways